



MUHTARAMA ONAXONLAR, MUNIS OPA-SINGILLAR!
BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN!

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari

O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 24-fevral № 2 (1524)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



BUGUNGI SONDA

Iftixor

Sizlar bilan olam munavvar

2

Jarayon

Iste'molchilar talabiga yarasha

3

Bugunning nafasi

Beqiyos ma'naviy xazina

4

Kombinat tarixidan

So'nmas u kunlar shuhrati

5

Dolzarb mavzu

Kamolot va bilim manbai

6

Huquqiy bilimlar

Mehnat qonunchiligi tizimi yanada takomillashtirildi

7

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Yomon ish qilgan isnodga qoladi

8

So'ragan edingiz

Kreditni kafil to'laydimi?

9

Salomatlik

Nima uchun og'riqga befarq bo'lish yaramaydi?

10

Futbol

Yangi mavsumga tayyorgarlik qanday?

11

GO'ZALLIK VA NAFOSAT AYYOMI

Muhtarama onaxonlar, qadrli opa-singillar!

Sizlarni ezhgulik va go'zallik bayrami 8-mart – Xalqaro Xotin-qizlar kuni bilan kombinatimiz ko'p ming kishilik mehnat jamoasi nomidan tabriklayman.

Hayotning o'zi qayta-qayta tasdiqlaydigan haqiqatni yodga olish kerak. Ayol sog'lom bo'lsa va u ona bo'lib, sog'lom farzandni bag'rige bossa, bu bizning baxtimizdir. Bilim va yuksak intellektual salohiyatga ega ma'naviy boy onalargina barkamol rivojlangan bolalarni tarbiyalashga qodir. Buni chuqur anglagan mamlakatimiz hukumati xalqimizning tinch va farovon hayotini ta'minlash maqsadida xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Ularning sog'lig'i, ishi, o'qishi, oilalari farovonligini mustahkamlash uchun sharoitlar yaxshilanmoqda. Yildan yilga ayollar uchun yanada ko'proq imkoniyatlardan yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xotin-qizlar va oila masalalari nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham belgilab beradigan muhim vazifadir."

Hurmatli kombinatimizda mehnat qilayotgan opa-singillar! Sizlar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir.

Siz o'z kasbingizning mohir ustalaridirsizlar. Bugungi kunda kombinatimizni sizlardek malakali iqtisodchilar, buxgalterlar, sirlovchilar, kran boshqaruvchilar, boshqaruv pulsi operatorlari, laborantlar, quruvchilar, ishchi-xodimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Orangizda kombinatimizda ko'p yillar davomida ishlayotganlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Bilim va tajribangiz, malaka va mahoratingiz tufayli sizlar kombinatning iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo'shmaqdasiz. Biz buni e'tirof etib, Sizlarga minnatdorchilik bildiramiz.

Mehnat faoliyatizingiz metallurgiya sohasiga bag'ishlaganingiz, kombinatda deyarli barcha sohalarda, shu jumladan, asosiy sexlarda biz bilan yonma-yon turib astoydil va samarali qilayotgan mehnatingiz uchun sizlarga rahmat. Shu bilan birga samarali mehnatlarining, oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shayotganingiz, joylardagi ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish borasida ibratli faoliyatizingiz tahsinlarga loyiq.

Yurt tinch, oilada xotirjamlik va farovonlik, farzandlar sog'lom bo'lsa – bu ayollar uchun haqiqiy bayram bo'ladi.

Yana bir bor barchangizni bahor, go'zallik va nafosat bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman. Barchangizga oilaviy xotirjamlik, xonadonlaringizga tinchlik, fayzu baraka tilayman. Doimo oilangiz va farzandlaringiz, elu yurtimiz ardog'ida bo'ling!

Rashid PIRMATOV,
"O'zmetkombinat"
AJ boshqaruv raisi – bosh direktor.

AYOLGA BAXT BERING!

Zulfiya MO'MINOVA

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Gar ko'zları kulib tursa-da,
Bo'g'zining ostida necha ming hasrat,
Oy yuzlari kulib tursa-da...

Ko'nglini ko'taring hech bo'limganda,
Qo'lini silashga shafoat toping.
Yig'lab turganida hech bo'limganda,
Yoshini artishga muruvvat toping.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro'moli,
Bosib o'tmaslikka shafoat toping.
Chaqaloq yalagan etaklarini
Toza deb aytishgaadolat toping.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Illohi ardog'idasiz. Sizning salomatligin-
giz, baxtingiz, sha'n va huquqingiz biz uchun
ko'z qorachig'idek azizdir. Ayollik baxti, bekalik
taxti, onalik martabasi Sizlarga hamisha hamroh
bo'lsin!

Illohi qalqonsiz, illohol qo'rg'onsiz
G'iybatlar yirtmasin ko'ylakkinasin.
Illohi hushyorsiz, illohol bedorsiz,
Itlar tishlamasin yurakkinasin.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Tog' qimirlab, toshlar so'zga kirsa-da,
Ayolga baxt bering, saodat bering, -
Oltmishga kirsa-da, yuzga kirsa-da.

AYOLLARNI
E'ZOZLASH VATANNI
E'ZOZLASHDIR

Hammamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ayol zoti haqida so'z yuritganda, avvalo, bizni dunyoga keltirgan, oq sut va mehr berib ulg'aytirgan Ona siyomosi oldida bosh egib ta'zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot bu - Ona. Xalqimiz ona siyomisini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi.

Bugungi kuniga kelib, O'zbekistonda muntazam ravishda profilaktik ko'rirkdan o'tayotgan ayollar soni ortib bormoqda, chunki ular saraton muammosidan xabardor va uni o'ta muhim deb bilişadi. Biroq, qo'rquv tufayli shifokorlarga umuman uchrashmaydiganlar ham bor. Ba'zilar bu sog'lik uchun juda muhim bo'lgan jarayonga befarqliq qilishadi, shunchaki tibbiy ko'rikdan o'tishni xohlasmaydi. Lekin bu noto'g'ri fikr.

Kombinat Ayollar kengashi raisi Marhabo Xoliquvaning so'zlariga ko'ra, tibbiy ko'rik davomida aniqlangan patologiyasi bo'lgan barcha bemorlar Toshkent shahriga tor mutaxassislardan qo'shimcha maslahatlar olish va davolanish uchun yuboriladi.

Yana bir bor eslatib o'tamizki, ushbu loyiha onkologiyani dastlabki bosqichlarda aniqlashga qaratilgan bo'lib, ayollar uchun 100 foiz to'g'ri davolanishga olib kelishi mumkin.

Hurmatli kombinat xotin-qizlari!

Esingizda bo'lsin, kasallik qanchalik erta aniqlansa, davolanish shunchalik muvaffaqiyatlari bo'ladi. Sog'lig'ingizga e'tiborli bo'ling! Bu sizlar uchun qo'shimcha qulaylik va g'amxo'rlikdir.

Onani e'ozolash - bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilat. Ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'ozolasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'ozolagan bo'lamiz.

Hasanboy SHOKIROV.

SIZLAR BILAN OLAM MUNAVVAR!

Ayol go'zal bo'lsa - olam go'zal, ayol baxtli bo'lsa - oila, butun jamiyat baxtli bo'ladi degan qarash ongu shuurimizga chuqur kirib borayotgani va bizning hayotiy falsafamizga aylanayotganini har tomonlama anglab yetayapmiz.

O'zbek ayoli mukammal inson, latif va nazokatli, mehribon va oqko'ngil. U mushtipar ona, mehribon rafiqqa, fidoyi hamkasb, yetuk olima, malakali xodima... Bu ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Ayolning ta'rifi olam-olam so'zlarni bag'rige sig'dira oladi.

Aziz va munis opa-singillar, muhtarama ayollar! Barchangizga bahor, muhabbat, go'zallik, latofat va mehr ramzi bo'lgan 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami muborak bo'lsin! Odatda ayolni bahorga, bahorni esa ayolga qiyoslashadi. Zotan

o'lkamiz uzra muattar sepini yoya boshlagan bahorning ilk kunlari aynan xotin-qizlar bayrami bilan boshlanishi ham ramziy ma'no kasb etadi.

Ayol - millat kelajagi, hayot davomchisi. Xotin-qizlari e'zozlangan, qadrlangan yurting buguni va ertasi farovon bo'ladi. Ayol mehnati bilan jamiyat to'laqonli rivojlanadi, taraqqiy etadi. Shuning uchun mamlakatimizda xotin-qizlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilib, ularning og'irini yengil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Aziz va muxtarama opa-singillar! Siz hamisha el-yurt ardog'idasiz. Sizning salomatligin-giz, baxtingiz, sha'n va huquqingiz biz uchun ko'z qorachig'idek azizdir. Ayollik baxti, bekalik taxti, onalik martabasi Sizlarga hamisha hamroh bo'lsin!

OPA-SINGILLARIMIZGA
YANA BIR G'AMXO'RLIK

Ayollar o'rtasida og'ir kasalliklarning oldini olish va erta aniqlashning samarali tizimini yaratish maqsadida "O'zmetkombinat" AJ Ayollar kengashi rahbariyati tomonidan kombinat ishchilarida bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratonini erta aniqlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Ushbu dastur kombinat rahbariyati tomonidan tasdiqlanganidan so'ng, 16-yanvardan boshlab "Metallurg" shahar shifoxonasi poliklinikasi bilan hamkorlikda ushbu muhim vazifani amalga oshirish bo'yicha ishlar boshlandi.



Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu kasallikni erta aniqlash uchun ayollarning profilaktik tekshiruvi kombinat xodimlarining yillik davriy tibbiy ko'rugi bilan bir vaqtida amalga oshiriladi. Sut bezi UTT tekshiruvidan bepul o'tkaziladi. Shuningdek, onkoskrining o'tkazish maqsadida bachadon bo'yni sohasidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida kolposkopiya tekshiruvi ham o'tkazilmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, ko'krak va bachadon saratonini davolash mumkin, ammo to'liq tiklanish ehtimoli faqat kasalliklarni erta tashhislashda erishiladi.

NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHDA

"O'zmetkombinat" AJ aksiyadorlari ning navbatdan tashqari umumi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'lishni "O'zmetkombinat" AJning Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i Yulduzxon Usanova ochib berdi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining yirik davlat aktivlarini transformatsiya qilish va xususiyashtirish departamenti guruh rahbari o'rinosi Sardor Yaxshiboyev ZOOM platformasi orqali onlayn ravishda yig'ilishga raislik qildi.

Yig'lishda bitta - "O'zmetkombinat" AJ aksiyadorlarining 2019-yil 16-martdag'i navbatdan tashqari umumi yig'ilishi qarori bilan ma'qullangan yirik bitim shartlariga o'zgartirish kiritish masalasi ko'rib chiqildi.

Bu masala yuzasidan "Quyuv-prokat majmuasini qurish" loyihasini amalgalashirish guruhi menedjeri Kamron Karimov so'zga chiqdi. U ma'ruzasida aksiyadorlarga bu masala yuzasidan atroficha ma'lumotlar berdi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumi yig'ilishida ko'rilib masala bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi.

SAMARADORLIK VA SIFAT SARI

Navli prokat sexida energiya xizmatining asosiy vazifasi energiya asbob-uskunalarining doimo ishga shay holatda turishini ta'minlashdir. Bu vazifaning sifatlari bajarilishi asbob-uskunalarining to'xtab qolishining oldini olishda, demakki ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Sex rahbariyati ta'kidlaganidek, energetika xizmati xodimlari ahillikda ishlab, o'z vazifalarini namunali bajarishga harakat qilyaptilar.

Bu yerda ijodga moyil va konstrukturlik salohiyatiga ega odamlar ishlashadi. Bu, albatta, sex uchun ham, umuman kombinat uchun ham juda foydali. Ular zimmalariga yuklangan ishlarni sifatlari va yuqori saviyada amalga oshiradilar.

Energetik-chilangarlar Bekzod O'rmonov, Alisher Trapkov, issiqlikni tiklash uchstaksi ustasi Abdushukur Ergashev, chilangar-ta'mirlovchi Alimardon Abdullayev kabilari o'z vazifalarini sidqidildan va sifatlari bajarib, mehnatda yoshlarga ibrat bo'lishmoqda.

ISTE'MOLCHILAR TALABIGA YARASHA

Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexida mineral vata, plitalar, tikilgan matlar kabi jahon andozalari talablariga javob beradigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu mahsulotlar asosan qurilish sohasida ishlatiladi.



Ular asosida qurilgan xonadonlar qish mavsumida issiqlikni uy ichidan tashqariga chiqarmaydi. Tashqaridagi sovuqni ham ichkariga kiritmaydi. Shuningdek, yoz mavsumida tashqaridagi jazirma issiqlikni uy ichiga kiritmaydi. Natijada qishda gaz, yozda esa elektr energiyasi tejaladi. Shuning uchun ham issiqlikni o'tkazmaydigan materiallarga iste'molchilarning ehtiyoji yildan yilga ortib bormoqda.

Kombinatning Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexida yil sayin xuddi

shunday mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda. O'tgan 2022-yilda sexda 12 764 tonna issiqlikni o'tkazmaydigan mahsulotlar ishlab chiqarildi. Bu sex ishga tushurilgandan buyon eng yuqori natijadir.

Dastgohlarning uzlusiz ishlashi va rejalashtirilmagan dastgohlar to'xtalishlarning oldini olish chora-tadbirlari ko'rili tufayli sexda ishlab chiqarish samaradorligi orttdi.

Bunday natijaga erishishda sexning muhandis-texnik xodimlari jonbozlik ko'rsatishdi. Jumladan, sex mexanigi Fikrat Qambarov, usta-mexanik Javlon Mirzaahmedov, sex energetigi Ravshan Gavsiddinov, ishlab chiqarish bo'yicha katta usta Jamoliddin Elchiyev, ustalar Farhod Haydarov, Farrux Zokirov, Adham Ummatov va Shuhrat Abduqodirovlarning sa'y-harakatlarini beqiyos bo'ldi. Shuningdek, sex ishchi-xodimlaridan Akmal Sharipov, Muzaffar Xolmatov, Ilhom Turg'unov, Alijon Xolmatov, Bekzod Jumayev, Shuhrat O'zganov, Saydulla Atabayev, Shavkat Xolmatov, G'ayrat Sharifov va Azamat Jabborov kabilari o'z ishiga mas'uliyatli yondoshuvlari bilan umumjamoza zafariga katta hissa qo'shishdi.

Bugungi kunda ham sex jamoasi belgilangan vazifalarini o'z vaqtida sifatli bajarmoqda.

Kombinatda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilishida va rejalarining ortig'i bilan bajarilishida har bir tarkibiy bo'linmaning munosib hissasi bor. Shu jumladan, Quyuv-mexanika sexida mehnat qilayotgan ishchilar ham bor tajribalarini ishga solib yaxshi natjalarga erishish yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqdalar.

BUYURTMALAR SIFATLI BAJARILMOQDA

Sexning Mexanika bo'limi jamoasi ayni kunlarda Zoldir prokat sexiga prokat roliklari, vallar, podshibnikning korpuslari, metallni qirqish uchun pichoqlar kabi turli detallar va ehtiyoj qismlar tayyorlab bermoda. Bundan tashqari jamoa joriy oyda Elektrda po'lat eritish va Navli prokat sexlarining buyurtmasiga ko'ra ehtiyoj qismlar ham tayyorlamoqda. Mexaniklar jamoasida tayyorlanayotgan ehtiyoj qismlar sifatidan buyurtmachilar mammun.

Sex boshlig'i Akmal Ibragimovning so'zlariga qaraganda topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishida randalash dastgohchisi Nodir Qurbonov, tokarlar Sherzod Jabborov, Oybek Mamarasulov, frezerlovchi Sherzod Habibullyaev, arra va pichoqda qirquvchi Safarali Mansurov kabi tajribali ishchilarning munosib hissalarini bor.



YOSHLIK VA TAJRIBA UYG'UNLIGI



"O'zmetkombinat" AJning Elektr uskunalarini ta'mirlash sexida korxonamiz aggregat va asbob-uskunalarining ishchilari tarzda bir maromda ishlashini ta'minlaydi. Sexda elektr asbob-uskunalarini hamda jihozlarini sozlash va ta'mirlash, yuk ko'tarish magnitlari, shuningdek, ehtiyoj qismlar va detallarni tayyorlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Elektr uskunalarini ta'mirlash sexida 100 kishi ishlaydi. Ularning aksariyati mas'uliyatni yaxshi his etadigan, mehnatkash mutaxassislardir. Elektr ta'mirlovchilar o'z vazifalarini vaqtida va sifatli bajarish orqali sexlarining erishayotgan muvaffaqiyatlariga

munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

Ta'kidlash joizki, bunda ko'p yillar jamoada mehnat qilayotgan tajribali ishchilarning tutgan o'rni katta. Ular orasida Ra'no Solieyva, Baxtiyor Ortiqov, Nazarqul Qodirov va boshqalar bor.

Malakali bu mutaxassislar sexda yosh ishchilarning eng yaxshi murabbiylari hamdir. Ana shunday tajribali ishchilar sexda kadrlar tayyorlashda ham asosiy vazifani bajarib kelishadi. Yosh ishchilar ulardan kasbining sir-asrorlarini, mehnat ko'nikmalarini o'rganadilar.

Sex rahbariyatining so'zlariga ko'ra, yoslik va tajribaning o'zaro uyg'unlashuvni kombinatning ushbu tarkibiy bo'linmasining barqaror ishlashining kafolati hisoblanadi.

Nigora BEKMURODOVA.

"O'zmetkombinat" Ajning Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi va Metallurglar madaniyat saroyi tomonidan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan ikki buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlab ma'rifiy-badiiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi o'rinnbosari Bekzod Qodirov o'z so'zida xalqimizning ma'nnaviyati va ma'rifatini yuksaltirishda, barkamol avlodni tarbiyalashda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'lmas merosi hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o'rganish va targ'ib etishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilayotganligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, tadbir davomida Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi kotibiyati mudiri Ulug'bek Abdunazarov, O'zbekiston yozuvchilar



xazinalari haqida to'xtalib o'tishdi.

2-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodlariga mansub ruboilar o'qilib, Metallurglar madaniyat saroyi xonandalari tomonidan buyuk bobokalonlarimiz g'azallariga bastalangan mumtoz qo'shiqlar ijro etildi.



KASABA UYUSHMASI MENING HAYOTIMDA

ULAR BILAN CHAMBARCHAS BOG'LIQ

Men ham yoshligimda kasb tanlashda ko'p o'ylanardim. Taqdir taqoza-si bilan men O'zbekiston metalluriya kombinatida ish boshladim. Kombinat chin ma'noda O'zbekistonnning iqtisodiyotini yuksaltirishda juda muhim ahamiyatga ega. Men esa shu o'tgan davr mobaynida shunday joyda mehnat qilayotganimdan faxrlanaman.

Kasbiy baxtni o'z ishingni sevish, undan rohatlanish, hamkasblar bilan hurmatda-izzatda ishlash deb tushunaman.

Kombinatda nafaqat mehnat qilasan agar xohish bo'lsa turli ko'rik-tanlovlarda qatnashasan, sport musobaqalarida ishtirok etib o'zingning imkoniyatlaringni sinab ko'rasan.

Bundan tashqari turli intelektual o'yinlar, teatr, konsert dasturlari, bayram tadbirlarida ishtirok etasan. Ular asosan kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan tashkil etiladi. Bu tadbirlar, tanlovlardan, musobaqalarda men ham imkon qadar qatnashaman. Bu mening kunlarim maroqli va qiziqarli o'tishida muhim ahamiyatga ega.

To'g'risi ba'zi insonlar bilan kasaba uyushmalari to'g'risida suhbatlashib qolsam kasaba uyushmalari - sanatori, pansionat va oromgohlariga yo'llanmalar beradigan tashkilotga o'xshaydi deyishadi. Men bu fikrga umuman qo'shilmayman. Chunki bilishimcha kasaba uyushmamiz bundan tashqari o'zining tashabbusi va mablag'lari hisobidan bayramlar, ma'naviy-ma'rifiy va sport-sog'lom-lashtirish tadbirlarini ko'plab tashkil lashtiradi.

Men shaxmat-shashka, mini-futbol turnirlarida qatnashganman. Bundan tashqari ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faolman. Bir necha marta Toshkent shahridagi milliy akademik drama, musiqali drama teatrlariga borib kelganman.

Mashhur san'atkorlarning, gala konsert dasturlarida qatnashganman.

Tursunboy SHUKUROV,

Buxoroga borib tarixiy obidalar, ziyoratgohlarni ko'rib keldim.

Hech qachon yodimdan chiqmaydi. Betob bo'lib qolganimda bir martalik yordam puli, sanatoriyy-profilaktoriyaga bepul yo'llanma olib, davalanib kelganman va buning uchun Kasaba uyushmasiga alohida rahmatimni aytaman.

Kasal bo'lganimda shifokor:

- Fizioterapiya olmasangiz bo'lmaydi. Profilaktoriyada yoting, davolaning, - degan edi.

To'g'risi o'shanda dori-darmon olaverib, mablag'dan qiynalib qolgandim. Ijroiya apparat kasabaqo'mi Yusuf aka bilan suhbatlashib, vaziyatni tushuntirganimda u ko'nglimni ko'targan edi.

- Eee o'ylanmang. Xudo xohlasa bu muammoni hal qilamiz. Kombinat ishchi-xodimlarining sog'liklari biz uchun muhim, - degandi.

Yusuf aka va'dasida turib menga bepul yo'llanma olib bergan edi. Hozir o'ylasam kutilmagan joydan kimdir seni qo'llab-quvvatlasa, vaziyatinga tushunsa xursand bo'larkansan. Rosti gapga uncha usta emasman ichimdag'i minnadorchilikni to'liq chiqarib berolmayman.

Bor gapni, bo'lgan gaplarni yozdim xalos. Xullas, Kasaba uyushmasi bilan hayotim chambarchas bog'liq desam ham bo'laveradi. Menga o'xshab kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan g'amxo'rlik va e'tiborni o'zida his etganlar ulardan minnatdor.

Ishchi-xizmatchilarni pensiyaga kuzatish marosimini tantanali sur'atda o'tkazish kombinatda an'anaga aylangan. Ko'p yillar kombinatda ishlaganlar hamkasblari, kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda alohida tadbirlar tashkil etib, pensiyaga tantanali ravishda kuzatilmoqda.

SHUNDAY INSONLAR BILAN FAXRLANAMIZ

Yaqinda Kislorod-kompressor seximizda uzoq yillar birgalikda mehnat qilgan hamkasb va ustozimiz chilangar-ta'mirlovchi Mirzali Mullaqulovni pensiyaga kuzatish tadbiri o'tkazildi. Tadbirda sex rahbariyati hamda hamkasblarimiz Mirzali akaga samimiylar va ezgu tilaklarini izhor etdilar. Metallurglar jamoasi nomidan ko'p yillik mehnatlari uchun min-



natdorlik bildirilib, "Tashakurnoma" va esdalik sovg'alar topshirildi.

17 yoshidayoq Bekobod umumovqatlanish trestida mehnat qilishni boshlagan Mirzali Mullaqulov oradan ikki yil o'tib harbiy xizmatga chaqiriladi. Xizmatdan so'ng 1980-yil metalluriya zavodining energiya ta'mirlash sexiga chilangar-ta'mirlovchi bo'lib ishga kiradi. So'nggi 20 yil esa Kislorod-kompressor sexida ishlaydi.

Kombinatda ishlagan 43

yilda faqat bir kasbda - chilangar-ta'mirlovchi vazifasida ishlab, bu sohada katta malaka va tajribaga ega bo'ldi.

O'z kasbining ustasi, yoshlar murabbiyi insoniy xislatlari, mehnatlari bilan jamoamizda katta hurmat-e'tibor qozongan. Mana shunday yaxshi insonlar, mutaxassislar oramizda ko'p bo'lsin. Shunday inson bilan birga ishlaganimizdan biz ham faxrlanamiz.

Hamkasblari, shogirdlari.

BEQIYOS MA'NAVIY XAZINA

SO'NMAS U KUNLAR SHUHRATI

5-mart kuni Markaziy Osiyoda qora metallurgiya sanoati to'ng'ichi bo'lgan O'zbekiston metallurgiya kombinasi ishga tushganligiga 79 yil to'ladi.

1944-yil 5-mart kuni Marten sexida dastlabki po'lat eritildi. Bu kun korxonamiz tashkil etilgan kun sifatida tarixga bitildi. Shundan so'ng korxonamizda ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi-yangi sexlar ishga tushirildi. Minglab yoshlar mehnatda toplandi. Qator mehnat Qahramonlari yetishib chiqdi. Ko'plarga Vatanimizning yuksak mukofotlari topshirildi.

Endilikda Bekobodda minglab ishchi va mutaxassis-larning fidokorona mehnati tufayli rivojlangan ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmasini o'zida mujassam etgan, mamlakatimizning yetakchi sanoat korxonalaridan biri qad rosladi.

Biz korxona qurilishida qatnashgan, po'lat eritish sexini ishga tushirib, birinchi eritma olishda ishtirok etganlar, kombinat taraqqiyotiga hissalarini qo'shganlar bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

HAQIQATGA AYLANGAN ERTAK

Bekobod shahrida 1960-yilgacha gaz yo'qligini hamma ham bilmasa kerak. Faqat shaharning 81-dahasida, "Pedagogika" ko'chasi bo'ylab, har biri 50 kubometr propan-butanni saqlaydigan yer ostiga qo'yilgan ikkita gaz idishlari bor edi.

Ular bir nechta 4 qavatli binolarning ehtiyojini zo'rg'a ta'minlardi. Zavoda esa markaziy laboratoriya yonida har biri 100 kubometr gazni saqlaydigan ikkita sisterna bo'lgan. Ulardan Marten sexi uchun metalloolmlarni kesishda foydalanilar edi. Boshqa joylarda benzin bilan kesgichlar va asetilen gazida ishlatiladigan apparatlar qo'llanilgan.

1960-yildan boshlab zavodda gaz quvurlari qurilishi jadal boshlandi. Ammo bu paytda gaz bilan ishlash tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bo'limgan. Shu sababli turli sexlardan 11 nafar ishchi 1959-yil dekabr oyida Volgograddagi "Красный октябрь" zavodiga tabiiy gazdan foydalanish qoidalari va usullarini o'rganish uchun yuborilgan. Ular orasida mashhur po'lat erituvchilar Qodirjon G'oipov, Vasiliy Zaysev, Nikolay Krasi, prokatchilar Zokir Siddiqov, Boris Galkin, Aleksandr Klinbok, Bahridin Nasridinov va boshqalar bor edi.

Ular 1961-yil mart oyida o'quv dasaturini tugatib, O'zbekiston metallurgiya zavodining gazlashtirish loyihasini diqqat bilan o'rganishni boshladilar va shu bilan birga metallurglar shaharchasining isitish qozonlarini ishga tushirishdi. Va nihoyat 1961-yil 20-iyun kuni 1-sonli gaz taqsimlash qurilmasiga gaz yetkazib berildi. Bu vaqtga kelib, ikkinchi guruhda yana mutaxassislar o'qishga ketishdi. Shu bilan birga, birinchi guruh ishtirokchilari tomoni-

dan olib kelingan dastur, yo'riqnomalar, texnik adabiyotlar, konseptlardan foydalangan holda kadrlar tayyorlashni boshladilar.

Bosh energetika, Texnika nazorati bo'limi va gaz xizmatlarining qattiq nazorati tufayli qisqa vaqt ichida hech qanday baxtsiz hodisalar va favqulodda vaziyatlarsiz Ta'mirlash-mexanika va Prokat sexlarining qizdirish pechlari va uchta, shu jumladan Prokat sexida ham kuydirish pechi ishga tushirildi. 1-sonli va 2-sonli metodik pechlar ham gazga ulandi. Bu bekobodlik metallurglar uchun katta voqeа edi. Axir metallurglar tutun va qurumlardan xalos bo'lishdi. Atrof toza ozoda bo'lib qoldi. Shundan so'ng sexlar ichkarisi ham oqlab, bo'yaldi. Bu haqiqiy bayram bo'lgan.

1963-yilda zavod butunlay gaz yoqilg'isiga o'tkazildi. O'sha vaqtarda metallurglar uchun bu xuddi ertakka o'xshardi. Ammo mashaqqatli muhandislik ishlari va zavodni gaz tarmog'iga ulaganlarning samarali mehnatlari tufayli bu ertak haqiqatga aylandi.



Suratlarda: zavodga gaz ulanishi bekobodlik metallurglar uchun haqiqiy bayramga aylangan edi.

UNUTISHGA HAQQIMIZ YO'Q

Bekobod shahri va metallurgiya kombinasi tarixida shunday insonlar bo'lganki, ularni unutishga haqqimiz yo'q. Respublika rahbariyati tomonidan yuborilgan I. F. Muhamedov 1949-yildan metallurgiya zavodini boshqarishni boshlagan. Odamlarning xotirasida u faqatgina zavodni 28 yil davomida boshqargani uchungina qolgan emas. U baquvvat,adolatli va talabchan odam edi. Uni hamma hurmat qilardi va bugungi kungacha minnatdorchilik bilan eslashadi.

I. F. Muhamedov rahbarligi davrida zavodning ikkinchi tug'ilishi boshlandi. 1974-yilda Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi. Elektroda po'lat eritish majmuasingning birinchi bosqichi qurilishi boshlandi. Bekobodliklar minglab yangi ish joylariga ega bo'lishdi, istirohat bog'i, stadion, Metallurglar madaniyat saroyi qurildi, tibbiy-sanitariya qismini kengaytirish boshlandi, yangi turar-joy binolari qurildi...

Uning xizmatlari va xotira-

si uchun Metallurglar madaniyat saroyi va mahallaga Muhamedov nomi berildi. Biroq, bir necha yillar oldin uning nomi bu joylardan olib tashlandi. Bu kimga kerak edi?

Bir narsa aniqliki, kombinatni yaxshi bilmaydiganlar unga ham, kombinat va shahar tarixlariiga ham befarq qarashadi. Shahar ravnaqi uchun ko'p ishlar qilgan I. F. Muhamedovga nisbatanadolatni tiklash kerak.

Shuningdek, metallurglar istirohat bog'iga nomi berilgan birinchi



I. Muhamedov



H. G'aniev

o'zbek po'lat erituvchisi, Mehnat qahramoni H. G. G'anievga ham shunday munosabatda bo'lindi.

2024-yil 5-mart kuni "O'zmetkombinat" AJ tavalludining 80 yilligi nishonlanadi. Yillar o'tadi,

lekin biz kombinatni qurgan va uni rivojlantirishga katta hissalarini qo'shgan insonlarni unutishga haqqimiz yo'q.

**N. YUSUPOV,
mehnat faxriysi.**

AXBOROT, ILM VA MA'RIFAT MARKAZI

KAMOLOT VA BILIM MANBAI

Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Kitob inson bilimini oshiradi, dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkmalaydi.

Kitobxonlikni ommaviylashtirish, ayniqsa, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni kabi qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Kitob bilan oshno bo'lganlardan yaxshi insonlar, zo'r mutaxassislar yetishib chiqadi. Ana shunday insonlar tufayli davlatlar taraqqiy etib boradi. "O'zmetkombinat" AJ Ilmiy-texnik kutubxonasi xizmatidan foydalanadiganlarni ham o'z ustida ishlaydigan yaxshi rahbar va mutaxassislar tashkil etadi.

SHAROITLAR YAXSHI

Kombinatimizda kutubxona tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ular kutubxonamiz faoliyatini yaxshilashni, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni, kitob fondini yig'ish va saqlash



uchun zamonaviy sharoitlar yaratish va kutubxona jarayonlarini avtomatashtirish kabilarni sezilarli ravishda yaxshilab boradi.

Bu maskanda kitobxonlar uchun juda yaxshi sharoitlar yaratilgan. Kutubxona kompyuter va boshqa ofis jihozlari, mebellar, konditsionerlar, stal lampalari kabilar bilan to'liq jihozlangan.

Kombinat rahbariyatining ko'magi tufayli Ilmiy - texnik kutubxona bosqichma-bosqich kitoblarning elektron shaklini takomillashtirib bormoqda. O'quv zalida allaqachon oltita simsiz monoblok o'rnatilgan bo'lib, ular yordamida jahon elektron axborot resurslaridan foydalanish uchun internet tarmog'idan foydalanish, zarur ma'lumotlarni olish, Wi-Fi bilan ishslash mumkin.

Kutubxonada barcha mavjud nashrlarni elektron ma'lumotlar bazasida to'plash, shuningdek, elektron shakldagi adabiyotlarni yangilash va sotib olish rejalashtirilmoqda. Shuhbasiz, ITning joriy etilishi nafaqat axborot xizmatlari ni avtomatashtiradi, balki ularni kengaytiradi, kitobxonning axborotni tez va qulay qidirishi va saqlashini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda kutubxonadagi 18 o'rinni o'quv zali, o'quv va texnik adabiyotlar beriladigan ma'lumotnomma-axborot hamda ma'lumotnomma va ensiklopedik fondlar kitobxonlar xizmatida.

Kutubxona bugungi kunda o'zbek, rus va xorijiy tillardagi 37 ming nusxdan ortiq adabiyotlardan iborat kitob fondiga ega. Shu jumladan, 250 nusxaga yaqin ilmiy adabiyotlar, 400 ga yaqin bosma badiiy adabiyot fondi ham bor.

Kutubxona metallurgiya va boshqa sohalariga oid davriy hamda umumiy nashrlar bilan to'ldirilib boriladi. Shuningdek, unda yillik turli jurnal va gazetalar to'plami bilan ham tanishish mumkin.

Yaqinda kutubxona o'zbek tilidagi texnik adabiyotlar, kombinat kitobxonalarini qiziqtirgan 1000 dona elektron kitob bilan to'ldirildi.

QIZIQISH BOR, BIROQ...

Kutubxonachilar ishchi-xodimlarni kitob o'qishga qiziqtirish uchun ko'p sa'y-harakat qilishmoqda. Kutubxonada muhim sanalarga bag'ishlab doimiy ravishda kitob ko'rgazmalari tashkil etiladi, kasb-hunar asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada puxta o'zlashtirish maqsadida yosh mutaxassislar hamda ishchi-xodimlar, amaliyotdagi talaba-yoshlarga adabiyotlar to'plamlari tavsija etiladi, maslahatlar beriladi.

Metallurglar kutubxonaga bormaydi, deb bo'lmaydi. Ular tushlik paytida yoki ishdan keyin kutubxonaga kirib turishadi. Ularning kitobga ehtiyojlari, qiziqishlari bor. Biroq, afsuski, "vaqt-lari kam". Kutubxonaga asosan unga yaqin atrofdagi sexlardan ishchi-xodimlar kelishadi.

Bu maskanda kitobxonlar uchun barcha shart-sharoit yaratilgan va u yanada yaxshilanmoqda. Ammo hozircha metallurglarning shinam o'qish zalida bemalol o'tirib o'qish, internetdan, kerakli adabiyotlardan foydalanishga ko'proq vaqtleri yo'q ...

Kutubxonachilar tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga ishlab chiqarishga ziyon yetkazmagan holda ishchi-xodimlarining kutubxonaga tashrif buyurishlari uchun vaqt va imkoniyat berishlarini so'rab bir necha marta murojaat qilishgan. O'ylaymizki, ular ishchi-xodimlarining kasbiy mahorati, bilimini oshirishda kutubxonaning o'rni naqadar muhim ekanligini yaxshi tushunishadi. Shunday ekan ularidan kutubxonaga keladiganlarga bemalol o'z ustilarida ishslashga imkoniyat va vaqt berishlarini kutib qolamiz.



O'QIYVERING!

Mashoyixlardan biri hikoya qiladi: Bir kuni shayximga: "Ustoz, ushbu kitobni to'liq o'qib chiqdim, lekin xotiramda hech narsa qolmadi", dedim. Shunda ustozim bir dona xurmo berib: "Buni yegin" dedi va birozdan so'ng menga: "Xurmo yeganing uchun katta bo'lib qoldingmi?", dedi.

Men: "Yo'q", dedim.

Ustozim: "Lekin bu xurmo sening badaningga singib, sening jasadingga go'sht, suyak, pay, teri, soch va tirnoqlaringa ozuqaga aylanmoqda", dedi. Shunda anglab yetdimki, men o'qiyotgan kitob ham ongimga singib, o'zim bilmagan holda mening lug'at boyligimni oshirar, aqlimni ziyoda qilar, axloqimni sayqallar, hamda gapirish uslubimni go'zal qilar ekan.

KITOB O'QISH HAQIDA ENG QIZIQARLI 5 TA FAKT

1) Taniqli, yaxshi yozadigan mualliflarning kitobini o'qib chiqsangiz, chiroyligi gapireshga odatlanasiz.

F. Voltaire.

2) Madaniyat – o'qilgan kitoblar sonida emas, balki tushunganlarning sonidan iboratdir.

F. Iskander.

3) Kitob o'qiydigan insonlar televizor tomosha qiluvchilarni boshqaradilar.

F. Janlis.

4) Inson qancha ko'p kitob o'qisa, shuncha kamroq taqlid qiladi.

Jules Renard.

5) Odamlar ikki toifaga bo'linadi: kitob o'qiganlar va o'qiganlarni tinglaydiganlar.

B. Shou.

KO'P MASHG'UL BO'LMANGLI

Eng yomon ishlardan biri telefonga ko'p mashg'ul bo'lib qolish (mashg'ullik foydali ishlarda bo'lsa ham). Buning sababi:

- Vaqt ketishi.
- Vaqt ketishi oqibatida qalbning qorayishi.
- Vaqt behuda ketgani uchun muhim ishlarga rag'bat susayishi.
- Tarmoqlardagi yengil ma'lumotlarni o'qib fikr o'tmaslashishi.
- Ko'zga yomon ta'sir qilishi.
- Boshqalar nazdida telefon o'ynagan ko'rning, nojiddiy odamga aylanish.

Maslahatim: faqat jiddiy ma'lumotlar o'qing. U hayotingizda sizga foyda bersin. Kommentarda o'ralashmang. Baribir u yerdagi fikrlarni hech kim inobatga olmaydi. Buning o'rniga kitob o'qing.


Chunki u sizni yuksaklarga olib chiqadi, telefon ma'lumotlaridan farqli o'laroq. Qisqasi hammasini o'zingiz tarozuga soling. Bo'lmasa ko'p ziyon ko'rasiz.

MEHNAT QONUNCHILIGI TIZIMI YANADA TAKOMILLASHTIRILDI

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrdagi O'RQ-798-sonli qonuni bilan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi tasdiqlandi va kodeks 2023-yilning 30-aprel kunidan kuchga kirishi belgilandi.

Shu o'rinda mazkur kodeksda belgilangan yangi qoida va tartiblar, jumladan, xizmat tekshiruvlari o'tkazish tartiblari to'g'risida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Kodeksga muvofiq xizmat tekshiruvi xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aynini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararning xususiyyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish hisoblanadi.

Ish beruvchi xizmat tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli bo'lib, xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi. Xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun ish beruvchining buyrug'i bilan xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha kamida 3 nafar a'zodan iborat komissiya tuliladi. Komissiya o'ziga nisbatan xizmat tekshi-



ruvi o'tkazilayotgan xodimlarga yozma shaklda tushuntirishlar taqdim etishni, xizmat tekshiruvi jarayonida aniqlanishi kerak bo'lgan holatlar haqida biror-bir ma'lumotdan xabardor bo'lishi mumkin bo'lgan xodimlarga ular yuzasidan yozma tushuntirishlar berishni taklif etish va boshqa huquqlarga, shuningdek, o'z majburiyatlariga ega bo'lsa, o'z navbatida o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim xizmat tekshiruvi nima sababli o'tkazilayotganini bishiga, komissiya a'zolarini rad etish to'g'risida arz qilishga, xizmat tekshiruvi masalalari

Bolalar ni davlat maktabgacha ta'lif tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdag'i 244-son qaroriga asosan tartibga solinadi.

BOLALAR NI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIGA QABUL QILISH TARTIBI

Bunday xizmatdan foydalananuvchi jismoniy shaxslar, yani ota-onalar, ular o'rni ni bosuvchi shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiyalar va homiylar), bolalarning yaqin qarindoshlari (bobosi, buvisi, voyaga yetgan akasi yoki opasi) yoki uchinchi shaxslar yo'llanmalar olish uchun davlat xizmatlari markazlariga o'zları kelib murojaat qiladi yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga (my.gov.uz)da ro'y-xatdan o'tadi. Davlat xizmatidan kompleks tarzda foydalanish uchun FHDY organiga tug'ilishni qayd etish bilan bir vaqtida murojaat qilishlari ham mumkin.

Ariza beruvchi so'rovnomaga to'ldirilib, avtomatik ravishda maktabgacha ta'limi ni boshqarish axborot tizimiga yuboriladi va tegishli tashkilot va guruhda bo'sh o'rinn bo'lganda - yo'llamma shakllantiriladi, bo'sh o'rinn bo'lmaganda - so'rovnomaga tegishlichcha umumi yoki imtiyozli ro'yxatga kiritiladi hamda xabarnoma shakllantiriladi.

Bolalarning quyidagi kontingenti so'rovnomalari imtiyozli ro'yxatga kiritiladi:

- I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning bolalari;
- ko'p bolali oilalarning bolalari;
- yetim bolalar yoki ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar;
- "ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning bolalari;



- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning, ichki ishlar organlari xodimlarining bolalari;
- talabalar va pedagoglarning bolalari;
- akalari yoki opalari ushbu muassasining tarbiyalanuvchilari jumlasidan bo'lgan bolalar;
- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlardan umumiy turdag'i maktabgacha tashkilotlarga o'tkazilayotgan sog'aygan bolalar.

Bolalar ni imtiyozli ro'yxat bo'yicha qabul qilish davlat-xususiy sheriklikka asoslangan nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari ga tatbiq etilmaydi. Ariza beruvchi bolalar ni tashkilotga qabul qilishni yo'llanma shakllangandan so'ng 15 ish kuni mobaynida rasmiylashtirmagan taqdirda yo'llanma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

**Murodqosim NURMATOV,
Bekobod shahar Adliya bo'limi
Davlat xizmatlari markazi direktori.**

bo'yicha yozma tushuntirishlar berishga, xizmat tekshiruvi natijalari haqidagi dalolatnomaga bilan tanishishga va boshqa huquqlarga hamda belgilangan majburiyatlarga ega bo'ladi.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi belgilangan bo'lib, xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga komissiya a'zolari tomonidan imzolandi. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga komissiya to'plagan boshqa materiallar bilan birga ish beruvchiga komissiya majlisida o'tkazilgan xizmat tekshiruvi haqida qaror qabul qilinganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay topshirilishi kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida kollegial tartilda xizmat tekshiruvi o'tkazish bilan bog'liq qoidalarning belgilab berilishi xodimlar tomonidan mehnat intizomi buzilishi bilan bog'liq holatlar ni atroficha va xolisona o'rganish, xodimlarning mehnat huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik, mehnat intizomi barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

**Xusnuiddin BIBAYEV,
Bekobod shahar Adliya bo'limi boshlig'i.**

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI AJRATIB YOZISH

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'l dan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yи kabi. Lekin bilan ko'makching -la shakli, uchun qo'shimchasining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

60. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zleri o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoddan, o'sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zleri qo'shib yoziladi. Shuningdek, qay so'zi yoq, yer so'zleri bilan ishlatiganda bir u tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinch kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tompa kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilalar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

YOMON ISH QILGAN ISNODGA QOLADI

Kombinatda ishchi-xodimlarning mehnat qilishlari uchun qulay va xavfsiz sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularning sog'liklarini mustahkamlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, namunali dam olish sharoitlarini tashkil etish bo'yicha ham bir qator g'amxo'rliklar qilinmoqda. Bugun ham ko'plab kishi-lar kombinatda ishlashni o'zları uchun sharaf deb bilishadi. Lekin ayrimlar "Yoningdan oqqan suvning qadri yo'q" degandek ish tutishlari achinarlidir.

"O'zmetkombinat" AJda texnik xodim bo'lган K. O'rozbayeva (ism, familiyasi o'zgartirilgan) ham ana shunday ayrimlar qatoriga kirib qolgan ekan. Aksincha bo'lganda u nomini yomon otliq qilmay tashmachilik illatiga mutbalo bo'lmas edi.

2023-yil yanvar oyining 12-kunida, Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyat Bekobod shahar sudi uning ma'muriy ishini ko'rib chiqdi. Bekobod shahar IIB binosida o'tkazilgan ochiq sayyor sud majlisida K. O'rozbayeva huquqbazar tariqasida so'roq qilinganda aybiga iqror bo'ldi.

Huquqbazar 2022-yil 19-dekabr kuni hech qanday hujjatsiz "O'zmetkombinat" AJga tegishli bo'lган 6 kilogramm shakarni yashirinchalik kombinat hududidan tashqariga olib chiqmoqchi bo'ladi. Biroq soqchilarning sergakligi tufayli maqsadini amalga oshira olmadi. Kombinatning 3-sonli nazorat o'tkazish joyidan shakarni olib chiqib ketayotgan vaqtida, shu yerda xizmat olib borayotgan harbiy qism askarlari tomonidan ushlanadi.

Ashyoviy dalil sifatida olingen 6 kilogramm shakar 20-dekabr kuni "O'zmetkombinat" AJning Ovqatlanish kombinatiga qaytarib topshiriladi. Huquqbazar ishi esa sudga oshirildi.

Sud majlisida u kombinatning Rangli metallar ishlab chiqarish sexidagi 18-sonli oshxonadan

shakarni yashirinchalik olib chiqib ketayotgan vaqtida qo'lga tushganligini bildiradi. Qilgan bu ishidan chin ko'ngildan pushaymonligi, bu holat boshqa takrorlanmasligini aytди.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi, aybiga iqrorligidan tashqari, hodisa sodir bo'lган joyni ko'zdan kechirish va daliliy ashyoni olish bayonnomasi, Bekobod shaharlararo Qo'riqlash bo'limi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnomma hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topgan, deb hisoblaydi.

Sud, huquqbuzarga jazo tayinlashda, uning shaxsini, yoshini, ayolligini, aybiga iqror bo'lib, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, ashyoviy dalil sifatida olingen mahsulotlar o'z



egasiga qaytarilganligini hisobga oldi.

Sud huquqbuzarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJKning 61-modda 1-qismi bilan yuritilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishga MJKning 21-moddasini qo'llab, ogohlantirish bilan kifoyalanishga qaror qildi.

Xalqimizda "Ko'pchilikning haqi" degan ibora bor. Ko'pchilikning haqi hech kimga hech qachon yuqmagan. Odamlar buni bilsalar-da, negadir ba'zilar ko'pchilikning haqiga xiyonat qilaveradilar. Mana shu huquqbazarlik misolida ham bilish mumkinki, boshqalarning haqi bilan kimningdir ro'zg'ori but bo'lib qolmaydi. Aksincha, u ro'zg'ordan barakani qochiradi. Bu ham kamlik qilgandek ko'pchilikning haqiga xiyonat qilganlar hamkasblari, qarindoshu qo'shnilar orasida sharmanda bo'ladi, nomi yomonga chiqadi.

"Yaxshilik qilgan inson yetar murodga, yomonlik qilgan inson qolar isnodga" hikmatini hech qachon unutmaylik!

**Xursheed XALIKOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi raisi.**

IJTIMOIY ILLATLARDAN YOSHLARNI ASRAYLIK!

Bugungi zamondan shiddati hayotimizni Internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmashagini namoyon etayotir. Aksariyat odamlarning faoliyati Internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqealari, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalananancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish, biror voqeaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir.

Bular ijtimoiy tarmoqlardan foydaluvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagagi odamni bemisl darajada o'ziga "maftun" qilib turadi.

Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtalarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yи foydalananishadi. Shu tariqa, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni

ma'naviyatli kishilarning fikri, deb bo'lmaydi, albatta. Ayniqa, bugungi kunda yetarli bilim va ko'nikmalariga ega bo'lмаган kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riliqini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati yetadimi, yo'qmi, bundan qat'iy nazar, o'z fikrini bildirishadi. Ba'zan shu holatda ayrimlar "yovuz kuchlar" ta'siriga ham tushib qolishi mumkin.

Chunki, ijtimoiy tarmoqlar orqali

inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish, yolg'on axborot tarqatish kabi holatlar, aynilsa, yoshlar uchun xavflidir. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi.

Ular internetning qulay va tezkor axborot vositasi ekanligidan g'oyat ustamonalik bilan foydalanishmoqda. Internet ekstremistik to'dalar bosh g'oyalarini tarqatish vositasi rolini ham beminnat o'tamoqda. Biz chin ma'noda tahlikali deb atayotgan zamonimizda Internet tarmog'i orqali tarqalayotgan g'arazli ma'lumotlar, vayronkor g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar hali ongi

to'la shakllanib ulgurmagan, har narsaga ishonuvchan yoshlarni o'z domiga beixtiyor tortayotgani achnarli hol.

Ba'zi yoshlar bilib-bilmay telefonida taqiqlangan video, material olib yurishlari yoki kimgargadir yuborishlari hattoki jinoyatga sabab bo'lmoqda.

Kompyuterda yoki oddiygina qo'l telefonida Internetning birorta ijtimoiy tarmog'iga kirgan o'smir ming chaqirim uzoqda turib turli yolg'onlar, bo'htonlar orqali o'zini aldashayotgani, avrashayotganini darhol anglay olmaydi. Balki, Internetdagi joziba kuchi uni o'ziga astasekin mahliyo qila boradi. Yolg'on axborot ortidan tinmay oqib kelayotgan galadagi yolg'onlar uning murg'ak dunyoqarashini yemira boradi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalar ta'sirini o'z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurdoshimiz, birinchi navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab yetishlari lozim bo'ladi.

Yoshlarimizni ijtimoiy illatlarning zararlaridan ogoh etib, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatmog'imiz lozim. Shundagina mamlakatimizning rivoji, nufuzi bundanda baland, mavqe doimo yuqori bo'laveradi.

Diyor ISMATOV.



TOZALASH INSHOOTLARIDAN FOYDALANISH SHARTMI?

Zararli moddalarni tozalash inshootlaridan foydalanmaslik uchun ham javobgarlik belgilanganmi?

N. Mirzayev.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 86-moddasida buning uchun javobgarlik belgilangan.

Unga asosan atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash uchun o'rnatilgan inshootlar, uskunalar, apparaturlardan, shuningdek chiqarib tashlanadigan zararli moddalar miqdori va tartibini nazorat qiluvchi vositalardan foydalanish qoidalarini buzish yoki ulardan foydalanmaslik mansabdorlarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.



YIRTLGAN PUL TO'LOVGA YAROQSIZMI?

Yirtiq pulni do'konga to'lov uchun bersam qabul qilishma-di. Shunday qilishga ularning haqlari bormi?

K. Solijonova.

O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tegishli himoya belgilariga ega bo'lgan banknotlarni hech qanday monegliksiz to'lovga qabul qilishlari va tushum puli sifatida banklarga topshirishlari lozim. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruvining "Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarorida belgilangan. Shu qaror asosida quyidagilar:

- har qanday qismida teshik yoki yirtilish bo'lgan, qog'ozi siyqalangan (ishqalanish oqibatida yupqalashib, yumshoq qog'oz ko'rinishiga kelib qolgan) hamda dog'lari bo'lgan va turli rasm va yozuvlar yozilgan



- yirtilib bo'laklarga ajralgan va yelimglangan pullar (agar pulning qismlari shubhasiz bitta banknota tegishli bo'lsa);

- bo'yoq moddalari yoki kislota to'kilgan, tabiiy rangi o'zgargan, kuygan, bo'yalgan yoki chizilgan pullar;

- umumiy hajmining 55 foizidan kam bo'limgan qismini saqlab qolgan banknotlar banklarda qabul qilinadi.

CHIQINDI TASHLAGANLARGA JARIMA SOLINADI

Ba'zi qo'shnilarim chiqindilarni, shu jumladan, qurilish chiqindilarini ham ko'chaga, anhor bo'yiga tashlashadi. Buning uchun ular javobgarlikka tortilishlari mumkinmi?

A. Xolto'rayeva.

Belgilanmagan joylarga qattiq maishiy chiqindilarni va qurilish chiqindilarini tashlagan, shuningdek, suyuq maishiy chiqindilarni to'kkalar ma'muriy tarzda javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 911-moddasiga binoan bunday fuqarolarga bazaviy

hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha (300 ming so'mdan 900 ming so'mgacha), mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan yigirma baravarigacha (3 mil. so'mdan 6 mil. so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzaqlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha (1,5 mil. so'mdan 3 mil. so'mgacha), mansabdor shaxslarga esa yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha (6 mil. so'mdan 9 mil. so'mgacha) miqdorda jarima solinadi.



DAVLAT RAMZLARIKA HURMATSIZLIK JAVOBGARLIKKA SABAB BO'LADI

Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik mavjudmi?

L. Karimova.

Qonunchilikka ko'ra, davlat ramzlarini tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

Davlat bayrog'i, gerbi yoxud madhiyasi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun fuqarolarga BHMning 3 baravarigacha (900 ming so'mgacha), mansabdor shaxslarga 3 baravaridan 7 baravarigacha (900 ming so'mdan 2,1 million so'mgacha) miqdorida jarima solinadi.

Bu holat takroran sodir etiladigan bo'lsa fuqarolarga BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha (900 ming so'mdan 1,5 million so'mgacha), mansabdor shaxslarga 7 baravaridan 10 baravarigacha (2,1 million so'mdan 3 million so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat bayrog'i, gerbi yoxud madhiyasi hurmatsizlik qilish BHMning 25 baravarigacha (7,5 million so'mgacha) miqdorda jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

KREDITNI KAFIL TO'LAYDIMI?

Hamkasbim avtomobil sotib olish uchun kredit olganda kafil bo'lgan edim. Hozir u hech qayerda ishlamayapti. U kreditini to'lay olmasa o'rniga qarzini kim to'laydi?

S. Niyozov.

Kafil bo'lish orqali siz kredit olgan shaxsning majburiyatini to'la yoki qisman bajarishni uning kreditori oldida o'z zimmangizga olgansiz.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining Kafilning javobgarligi nomli 293-moddasi asosida qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kredit oldida solidar javob berishi belgilangan.

Shuningdek, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'limasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan, foizlarni to'lay-



JIGARDA QANDAY OG'IR XASTALIKLAR UCHRASHI MUMKIN?

Jigar - tanamizdagi eng katta ahamiyatga ega bo'lgan organlardan biridir. U organizmni zararli allergen va zaharli moddalardan himoya qiladi. Ovqat hazm bo'lismida va oziq moddalarining ichakdan qonga so'riliishi muhim rol o'ynaydi. Qon ivishida va boshqa ko'plab zaruriy moddalarni sintez qilishi bos vazifalardan birini bajaradi. Bajaradigan funksiyalari ko'p ekani bois, bu organ kasallanishga moyilligi yuqori bo'lgan a'zolardan biri.

Alkogolizm va hazm qiluvchi a'zolarning surunkali kasalliklari sababli organizmda zararli moddalar ko'payib ketsa, jigar funksiyalari buziladi. Bunday kutilmagan o'zgarishlar sababli jigarda og'ir kasalliklar paydo bo'ladi.

Jigar tanamizdagi 500 dan ortiq eng muhim funksiyalarni bajaradi. Ushbu organizm, ko'pincha o'zidagi salbiy o'zgarish va kasalliklar rivojlanayotganini sezdirmaydi. Jigardagi ko'plab kasalliklarning rivojlanish jarayoni tinch o'tadi. Shu sababli ham ko'pchilik shifokorlar jigarni "indamas a'zo" deb atashadi. "Indamas a'zo" dagi kasalliklarni faqat umumiy qon tahlilining natijalari orqali aniqlash mumkin.

Jigar kasalliklari nafaqat erkaklarda, balki ayollarda ham uchraydi. Ular alkogol iste'moli, noto'g'ri ovqatlanish (yog'li, sho'r, yuqori kaloriyali ovqatlar, fast-food), yuqumli kasalliklar (virusli hepatit) yoxud irsiy moyillik bois ham kuzatiladi.

Jigarda uchrovchi asosiy xastaliklar:

- jigar sirrozi;
- surunkali virusli hepatit C va B;
- birlamchi safro sirrozi;
- birlamchi sklerozli xolangiti;
- alkogolli hepatopatiya;
- steatoz va alkogolizm steagepatiti;
- jigar saratoni.



Jigardagi surunkali hepatitning og'ir C va B ko'rinishlari asosan spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish, qon tomirlaridagi o'zgarishlar va safro chiqish yo'llaridagi (Safro - o't pufagida saqlanadigan jigar tomonidan ishlab chiqarilgan suyuqlik) muammolar oqibatida yuzaga keladi. Bu kasalliklar jigar sirroziga aylanib, ushbu a'zo hujayralarining nobud bo'lismiga va undagi holatning buzilishiga olib keladi.

Jigarda uchrovchi kasalliklarning o'tkir darajasining paydo bo'lismiga ba'zida dori vositalarini noto'g'ri qabul qilish ham sabab bo'ladi.



Mamlakatimizda shifokorlar muvaffaqiyatli ravishda jigar transplantatsiyasi amaliyotini o'tkazishmoqda.

NIMA UCHUN OG'RIQGA BEFARQ BO'LISH YARAMAYDI?

Jigar juda yomon holatda bo'lsa ham o'z-o'zidan og'riishi mumkin emas: unda og'riq beruvchi retseptorlar yo'q. Odatda ko'ngilsiz holatlar faqatgina u yoki bu kasallik yetarlicha avj olganda paydo bo'la boshlaydi. Jigar shishadi, kattalashadi va o'zini o'rabi turuvchi qobiq (kapsula) devorlariga bosim o'tkaza boshlaydi. Kapsulada asabiy xotima vujudga keladi – shunday qilib og'irlik yoki og'riqlar boshnadi.

Jigar kasallanishining yana qanday alomatlari bor?

Jigar sohasidagi og'riqlar – yaqqol dalil. Biroq har doim ham emas. Ba'zida ushbu organda avj oluvchi kasalliklar o'zini umuman boshqa joylardagi yoqimsiz hislar bilan sezdirishga urinadi: masalan, qorinning old qismi, bel va hattoki o'ng yelkada.

Ba'zi holatlarda esa og'riq umuman kuzatilmaydi. Inson sirrozning tibbiyat davolashga ojiz bo'lgan bosqichiga yaqinlasha turib ham kasallikdan bexabar bo'lishi mumkin.

Jigar faoliyatidagi kamchiliklar qancha erta aniqlansa, tiklash

jarayoni ham shuncha oson kechadi. Shuning uchun boshqa – bevosita va bilvosita – alomatlarni bilish muhim.

Tez holdan toyish, uzoq vaqt – kunlab yoki hafta davomida besabab charchash;

- parhezda, hayot tarzida o'zgarishlarsiz tana vazni kamayishi;
- doimiy ko'ngil aynishi, bosh aylanishi;
- ishtaha yo'qolishi, og'izda achchiq maza saqlanishi;
- to'piq qismida muntazam paydo bo'luvchi shishlar;
- qorin shishishi holati ko'payishi;
- noma'lum sabab bilan boshlangan qichishishning kuchayishi – tananing har qanday qismida kuza tilishi mumkin: yelka-bel sohasida, ko'krak qafasida, qo'lda, oyoqda.

Agar yuqoridagi alomatlar va siyidik rangi to'q, axlat rangi och tusga kirishi, teri va ko'z olmasi sarg'ayishi, qorin sohasida birdan ta'sirchanlik kuchayishi (og'riq zo'rayishi) va yumshashi sodir bo'lganda shifokorga zudlik bilan murojaat qilish kerak.

FOYDALI MAHSULOTLAR

Jigar tiklanish qobiliyatiga ega. Ma'lumki, jigarning yarmini kesib tashlaganda ham, muayyan vaqtadan so'ng u to'liq tiklanadi. Uning bunday qobiliyati bo'lmaganida o'smirlik davridayoq organizmimizdagi toksinlarni chiqarolmay qolardi. Natijada bunchalik umr ko'rmagan bo'lardik. Biroq yosh o'tgan sari jigarning tiklanish qobiliyati sekinlashadi. Shu bois butun umr tonnalab zararli taom va ichimliklarni o'zidan o'tkazuvchi ushbu a'zoning qadriga yetish kerak. Buning uchun zararli odatlarni tashlash va albatta, taomnomani qaytadan tuzib chiqish lozim. Quyida jigarni saqlashga va tiklanishiga yordam beradigan mahsulotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Zanjabil. Ushbu ildiz tom ma'noda barcha dardlar uchun dori sanaladi. U organizmdan zararli moddalarni chiqarib yuboradi, qon aylanishini yaxshilaydi. Zanjabil hepatit, gepatoz kabi jigar kasalliklari xavfini kamaytirishi ilmiy isbotlangan.

Dengiz karami. Ekzotik mahsulot tarkibidagi kislota zararli moddalarni birlashtirib, organizmdan chiqarib yuboradi.

Pomidor. Qizil sabzavot tarkibida o'simlik kraxmali bo'lib, u jigar uchun nihoyatda zarur. Jigar hujayralarining tezroq bo'linishiga, ya'ni jigarning tezroq tiklanishiga yordam beradi.

Arpabodiyon. Ushbu sabzavot tarkibida A, V, Ye, R, S vitaminlari mavjud. Undan turli tibbiy dori-darmonalr tayyorlanadi. Doridan ko'ra

sabzavot sifatida iste'mol qilgan ma'qul. Chunki u jigar hujayralarining tiklanishida eng samarali mahsulot sanaladi.

Zaytun yog'i. Oddiy kungabogar yog'i o'rniga zaytun yog'idan foydalanish tavsija etiladi. Negaki, u organizm uchun juda foydali. Zaytun yog'i nafaqat taom, balki biz nafas oladigan havo orqali vujudimizga kiradigan zararli moddalarni organizmimizdan chiqarib yuboradi.

Qovoq. Mazkur sabzavot turli parhezlarda tavsija etiladi. Uni xohlagan ko'rinishda iste'mol qilish mumkin. Negaki, yengil mahsulot hisoblanadi, ya'ni jigaramizni zo'riqtirib qo'yaydi. Qovoqni taomnomaga kiritsangiz, ko'p ovqat yeb qo'yish, yog'li taomlar tanovul qilish, chekish, alkogol iste'mol qilish kabi zararli odatlardan xalos bo'lasiz.

Taomingizda oqsillar, sutli mahsulotlar, yog'lar bo'lsin. Sabzavotlar, brokkoli, rangli karam, sabzi, oddiy karam, olma va yong'oqlarni ham unutmang. Yangi mevalar, sabzavotlar, kam yanchilgan bug'doy noni, guruch va boshqa yormali mahsulotlarni ko'proq tanovul qiling.



AMAL QILING VA SOG'LOM BO'LING!

- Sog'лом turmush kechiring va muvozanatli parhezga rioya qiling.
- Qon quyishga to'g'ri kelsa, A, V yoki S hepatitidan zararlanib qolishdan ehtiyyot bo'ling.
- Shaxsiy tozalikka rioya qiling, hojatdan so'ng, qo'lingizni, albatta, yuvying.
- Safarga chiqqaningizda to'g'ri kelgan suvni ichmang.
- Alkogol, tamaki va giyohvandlikdan voz keching.
- Doimiy ravishda jismoniy mashqlar qiling.

MUXLISLARIMIZ UCHUN CHIROYLI O'YINLAR NAMOYISH QILAMIZ

2022-yil "Metallurg" futbol klubi hamda muxlislari uchun hayajonli va ehtiroslarga boy lahzalarni taqdim etdi. Championatni kuchli oltitalikda yakunlash imkoniyatiga ega bo'lib turgan jamoamiz so'nggi turlarida xotirjamlikka berilib ketma-ket uchta mag'lubiyatdan keyin 10-o'ringa tushib qoldi. Bu undan avvalgi yilga nisbatan bir pog'ona yuqori.

Bir qaraganda natija unchalik yomon emas: qoniqarli. Biroq bu ko'rsatkich klub rahbariyati – muassislariga manzur bo'ldi, deya olmaymiz. Shu sababdan qishki ta'til oldidan ta'sischilar murabbiylar shtabi hamda futbolchi-

lar bilan uchrashib, jamoa oldiga aniq maqsad va vazifalar ni belgilab berdi. O'z navbatida klub siyosatiga ham juz'iy o'zgartirishlar kiritildi. Muqaddam asosan mahalliy futbolchilar xizmatiga tayanilgan bo'lsa, 2023-yildan tarkibda xorijlik futbolchilar ham joy olishdi.

Ayni kunlarda "Metallurg" mavsumga jiddiy tayyorgarlik ko'rmoqda.

Biz "Metallurg" professional futbol klubi bosh direktori **Shavkat SAIDOV** bilan mavsumga tayyorgarlik, tarkibdagi o'zgarishlar, jamoa oldiga 2023-yil mavsumida qo'yilgan vazifalar haqida suhbat uyushtirdik.

- Yangi mavsum uchun tayyorgarlik qanday olib borilyapti?

- Birinchi yig'inimizni Bekobodda boshladik. Futbolchilarning jismoniy holatini maromiga yetkazish, yuklamalarini oshirish yo'lida ikki hafta mobaynida klub qarorgohidagi trenajer zalida faoliyat olib borildi. "Yoshlik" sport majmuasi hamda akademiya maydonida to'p bilan ishlashga e'tibor berildi. Shu bilan birgalikda Toshkentdan kelgan maxsus tibbiy guruh tomonidan futbolchilarimiz tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

So'ng Toshkentda ham yig'in o'tkazdi. 24-yanvar kunidan boshlab jamoamiz Toshkent shahrida bir qator nazorat o'yinlarini o'tkazdi.

25-yanvar kuni jamoamiz Pro liga vakili Samarqandning "Dinamo" jamoasiga qarshi o'rtoqlik uchrashuvni o'tkazdi - 1:1. 28-yanvarda esa Superliga vakili Termizning "Surxon" jamoasi bilan o'rtoqlik o'yinida maydonga tushdi - 0:2. 4-fevral kuni esa yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rish jarayonida "Metallurg"ning navbatdagi nazorat uchrashuvida sparring raqibi bo'lgan Muborakning "Mash'al" jamoasini 1:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdik. 8-fevral kuni esa "Metallurg" nazorat uchrashuvida "Xorazm"ni mag'lubiyatga uchratdi - 3:0. 11-fevralda "Dinamo"ga qarshi nazorat uchrashuvida 2:3 hisobi qaydetildi. 15-fevral kuni esa "Qo'qon 1912" jamoasini 2:1, 18-fevral kuni esa "So'g'diyona"ni 1:0 hisobida yengdik.

Bu nazorat o'yinlarida futbolchilarning jismoniy holatini yaxshilashga, maydonda o'zarobir-birlarini tushunishlari, chiziqlar orasidagi kamchiliklarni tugatishga asosiy e'tibor qaratildi. 3-bosqich yig'ini Bekobodda o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor taktik tayyorgarlikka qaratiladi. Mavsum boshlanishidan avval bugun Toshkentda "Lokomotiv"ga qarshi so'nggi nazorat uchrashuvini o'tkazamiz.

- Tarkibni bir qator yetakchi futbolchilar tark etishdi. Ularga nega javob berildi?

- Ketgan futbolchilarimizga boshqa jamoalardan yaxshiroq takliflar chiqdi. Shu sababli ular bilan xayrashishga majbur bo'ldik. Jamoamiz uchun qilgan mehnatlari uchun ularidan minnatdormiz. Anvar G'ofurovni "Metallurg" murabbiylar shtabi olib qolmoqchi edi. Lekin vaziyat taqozosini to'g'ri suradilar.



Shavkat Saidov "So'g'diyona"ning sobiq hujumchisi Husniddin G'ofurovni "Metallurg"ga rasman o'tgani bilan tabriklamaqda.

tushungan holatda unga ham javob berishga majbur bo'ldik. Farhod Bekmurodov, Ixtiyor Toshpo'latov, Abbas Otaxonov, Jasur Xolto'rayev, Boburbek Farhodovlar bilan ham iliq xayrashdik.

- Bu futbolchilar o'rniga legionerlar olib kelindi. Shu bois jamoadagi o'zgarishlar xususida o'z fikrlaringizni bildirib o'tsangiz.

- Jamoamizni bir qator yetakchi futbolchilar tark etishdi. Ketgan o'yinchilarimizga rahmat aytamiz va kelajakdagi ishlari omad tilaymiz. Ularning o'rniga legionerlar kelishdi.

2022-yil noyabr oyidan seleksiya ishlari boshlandi. Seleksionerlar tomonidan tavsiya qilingan futbolchilar jamoaga taklif qilindi. Ular orasidan murabbiylar shtabiga ma'qul kelgan, moliyaviy imkoniyatlarimizdan kelib chiqqan holda futbolchilar tanlab olindi. Legionerlardan Vladislav Kosminin, Ivan Yosovich, Filip Stamenkovich, Marko Obradovich jamoamiz safiga qo'shildi.

Mahalliy futbolchilardan "So'g'diyona" sharafini himoya qilgan Abdujalil Manazarov, Husniddin G'ofurov, "Paxtakor" hamda O'zbekiston U-20 terma jamoasi a'zosini Rian Islomov kabi futbolchilar 2023-yilgi mavsumda "Metallurg" libosida to'p suradilar.

Shuningdek, yangi mavsumga tayyorgarlik



ko'rayotgan "Metallurg" tarkibiga ikki nafar iqtidorli yosh o'yinchini ham qo'shib oldik. Ularning har ikkalasi O'zbekiston yoshlar terma jamoasiga nomzod futbolchilar sanalishadi. Bu futbolchilar Muhammadbobur Mo'yinov hamda Izzatillo Po'latovdir.

Bu futbolchilar jamoamizdan ketganlar o'rni ni bosish va chiziqlarni kuchaytirish maqsadida "Metallurg"ga qabul qilindi.

- Hozirgi shakllantirilayotgan jamoaning o'tgan yildagidan qanday farqi bor?

- Murabbiylar shtabi o'tgan yilgiga nisbatan kuchliroq o'yin ko'rsatadigan, yuqoriroq o'rinnar uchun kurashadigan jamoani shakllantirishga harakat qilmoqda. Jamoamizga qo'shilgan yangi futbolchilarga umid qilyapmiz. O'ylashimcha, bu o'z mevasini beradi.

- Jamoa oldiga yangi mavsumda qanday vazifa qo'yildi?

- Mavsum boshlanishi oldidan rahbariyat bilan uchrashuv o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ana shu uchrashuvda mavsum vazifalari belgilab olinadi. Nima bo'lganda ham "Metallurg" mavsumdag'i har bir o'yinda g'alaba uchun maydonga tushadi. An'anaviy ravishda muxlislarmiz uchun chiroyl va murosasiz o'yinlar namoyish qilamiz.

2021-yilda tashkil etilgan "El Golazo Academy Powered by Real Madrid Foundation" futbol akademiyamiz bugun mamlakatimizda eng yaxshi futbol akademiyasi hisoblanadi. Unda tahsil olayotgan bolalar va o'smirlar kelgusida jahon darrasidagi futbolchilar bo'lib yetishib chiqishlari uchun ajoyib shart-sharoitlar yaratilgan. Ularga tayangan holda kelgusida "Metallurg" futbol klubi oldiga strategik maqsadlar qo'yiladi.

Diyor ZULFIQOROV suhbatlashdi.

MAVSUM QACHON START OLISHI MA'LUM

Futbol bo'yicha O'zbekiston Superligasining 2023-yilgi mavsumi 3-mart kunidan start oladi. "Metallurg" mavsumning birinchi turida 3-mart kuni o'z maydonida "Neftchi" jamoasiga qarshi maydonga tushadi. 2-turda 11-martda "Navbahor" mehmoni bo'lsa, 3-turda o'z maydonida 19-mart kuni "Qizilqum" jamoasini qabul qiladi.



HAYOTIY VOQEYA

O'KINMA BOLAM...

Endigina ko'zi yorigan yosh ona kuchli haya-jonda:

- Chaqalog'imni ko'rsam bo'ladimi? - deb so'radi.

Quchog'iga yumshoq bir yurgak berildi va baxtli ona chaqalog'ining jajji yuzini ko'rmoq uchun uning yuzini ochdi va hayratga tushganidan tili tutilib qoldi.

Chaqaloqning quloqlari yo'q edi... Tahlillar bolaning eshitish qobiliyati yaxshi ekani, faqat qulog'ining suprasi yo'qligi bolaning husnini buzib turganini ko'rsatdi. Oradan yillar o'tdi, bola maktabga chiqdi.

Bir kuni maktabdan uyga yugurib keldi va o'zini onasining bag'riga otdi. To'liqib yig'lar edi. Bu uning hayotidagi birinchi mazaxlanishi va umidsizligi edi:

- Bir katta bola menga maxluq dedi.

Bolakay ana shu kemtiklik bilan ulg'aya bosh-ladi.

Bolaning otasi shifokor bilan qulog'i xususida so'zlashdi.

- Biror narsa qilishning iloji yo'qmi? - deb so'radi.

Shifokor:

- Agar bir juft quloq topishning iloji bo'lsa, uni yopishtirib qo'yish mumkin, - dedi.

Shundan so'ng bolaga quloqlarini fido etishi mumkin bo'lgan bir insonni axtara boshladilar. Oradan ikki yil o'tdi. Bir kuni otasi:

- Shifoxonaga borasan, o'g'lim, onang ikkalamiz senga quloqlarini berishga rozi bo'lgan bir odamni topdik. Faqat uning kimligini senga ayta olmaymiz - sir, - dedi.

Operatsiya muvaffaqiyatlari o'tdi va butunlay yangi bir inson qiyofasi paydo bo'ldi. Yangi



ko'rinishidan ruhiyati yuksalgan bola o'qishda va ijtimoiy hayotda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. So'ngra uylandi va ko'zga ko'ringan diplomat bo'ldi. Oradan yillar o'tdi, bir kuni otasining oldiga kirib:

- Otajon, menga bu qadar katta yaxshilik qilgan odam kim? Men uning yaxshiligiga hech qanday javob qaytara olmadim... - dedi.

Otasi:

- Biror narsa qila olishingga ko'zim yetmaydi. Faqat jiddiy shartlashganmiz, hali uning kimligini ayta olmayman, vaqt yetmadi... - deb javob berdi.

Bu sir yillar davomida saqlandi va bir kuni ochilish vaqt keldi. Boshiga musibat tushgan kunda onasining jonsiz tanasi boshida otasi bilan birga janoza o'qilishini kutayotgan edi. Otasi muloyim harakat bilan onasining boshiga qo'l cho'zdi, sochlari silab orqaga taradi, onasining quloqlari yo'q edi. Otasi:

- Nega onajonim, uyda o'tirganda ham ro'molini boshidan olmaydi, sochlariqa oro bermaydi, deb hech o'ylamadingmi? - deya shivirladi.

HIKMATLAR DURDONASI

Onalar oyog'i ostidadur
Ravzayi jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang,
Bo'l onaning oyog'in tuprog'i.

Alisher Navoiy.

Ona mehri - bu hech narsa o'rnini bosa olmaydigan yagona tuyg'u.

Biz ko'ra oladigan yerdagi yagona farishta bu -ona.

Ona - jannatni uning oyoqlari ostidan qidir. Uning duosi boqiy xazina. Rizosi ofatsiz baxt.

ONA - BUYUK INSON

Qiziq-a... Odamzod salgina og'rib qolsa, dard cheksa darhol onasini eslaydi... Hech bo'lmasa "Oh onajon" deb qo'yadi. Nega shunday...? Axir onalarning hammasi ham shifokor emas-ku? Otasini... aka-ukasini, opa-singlisini, hatto tur-mush o'rtog'ini ham emas, aynan onasini eslaydi, chaqiradi! Aytishlaricha ayol kishi dard tut-ganida ham "ona" deb chaqirar ekan, garchi onasi uzoqlarda bo'lsa-da, kelolmasligini bilsa-da... Ozroq mazamiz qochib ko'nglimizga qil sig'may qolsa, onamizga qo'ng'iroq qilamiz: - Ona mazam yo'q...

Onamiz esa odati bo'yicha vaqtida oldini olma-gan ishlarimizni (yupun kiyinganimiz, vaqtida ovqatlanmaganimiz va hakozo) aytib koyiydi, tergaydi...

Go'shakni qo'yamiz-da negadir yengil tor-tamiz, o'nta dori berolmagan davoni onaning bir lahzalik kuyinishi, qayg'urishi, mehridan topamiz go'yo...!

Nega shunday a...?

- Mana bu kasalliklar taq-simlanayotganda-chi?!

SAVDO

- Ufff, bugun nimagadir savdo yaxshi bo'lmadi, - dedi xafa ohangda dorixonachi qiz.

KORRUPSIYA

- Sizlarni korrupsiya botqog'idan olib chiqishga va'da beraman. Ammo... Bu tekinga bo'lmaydi...

AHILLIK

Ular bir birini juda sevar-di, ardoqlardi, qizg'onardi. Bir so'z bilan aytganda ibrat darajasida edi. Ajrim qog'ozini ko'rayotgan sudya esa bunga hech ishonmadi.

QARZ

- Nega uzoq yo'ldan yuryap-miz, dada?

- Qosim do'konchi bor-ku, uning do'koni yonidan o'tmaylik. Qarzi bor mendan. Ancha bo'ldi. Ahvoli yaxshi bo'lmasa kerak. Berolmayapti. Biz unga o'zimizni ko'rsatib o'tishimiz yaxshi emas, o'g'lim.

SOG'INCH

Keksa otaxonidan so'radilar:

- Bolalaringizni sog'ina-sizmi?

Otaxon javob berdi:

- Men bolalarimning bolaligini sog'inaman...

Chunki, u vaqtarda bolalarim uzoqqa ketsam meni

- Do'stim, sen hamisha xotiningning fikrini ma'qullaysanmi?

- Har doim ham emas.

- U bu ishingga qanday munosabat bildiradi?

- Hech qanaqa. U fikrini ma'qullamasligimni umuman bilmaydi.

Vrach bemordan so'radi:

- Xo'sh, menga kelguncha biror mutaxassisiga uchradingizmi?

- Ha, dorixona sotuvchisiga uchrovdim.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

yig'lab sog'inishar edilar. Esh-ikdan kirsam, kulib kutib olis-hardi. Men uyda bo'lmamas meni qidirishar, mensiz ovqat ham yegilari kelmas edi... Endichi... Xammasi aksi..."

TAQSIMOT

Bir boyning uyida mehmon bo'lgan yigit xayol surib o'tirar ekan do'stiga shunday dedi:

- Shu mol-davlatlar bandalar orasida taqsim qilinayotganida biz qayerda edik-a!?

Buni eshitgan do'sti uni kasalxonaga yetaklab bordi va shunday dedi:

- Shunaqami? Hoynahoy, ahmoqona maslahat-lar berib tashlagandir?

- Ha, sizga uchrashishimni maslahat berdi.

Ikki kampir janjallashayapti:

- Jinni!

- O'zing jinni!

Qaerdandir bir qariya paydo

bo'ldi-da, dedi:

- Janjallashmanglar! Ikkovlaring ham haq-sizlar!

XANDALAR

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani, "Oq ota" hududi "Mash`al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqt 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O`zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.

BILIMINGIZNI SINANG!

Amerikalik tarixchi olim Sarton XI asrni o'z asarida qanday ta'riflaydi?

Yurtimizda Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni?

Oxirgi 4 ming yil ichida qaysi hayvon xonakilashtirilgan?

O'zbekistondagi eng katta yirtqich qushning nomi?

Qog'oz pullar ilk marotaba qaysi davlatda muomalaga kiritilgan?

"Buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati yo'qolishiga sabab nima?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Arslon ovozi.

Afg'oniston Respublikasi madhiyasi. Mamlakatda turli millat va elatlar yashab kelayotgani qatorida o'zbeklarga ham alohida urg'u berib o'tilgan.

XIV - XV asrlargacha asosan fors tilida ishlar olib borilgan. O'zbek tiliga Husayn Boyqaro davlat tili maqaomini bergen.

MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatি.
WWW.uzbeksteel.uz

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2015-yil 6-mayda 03-006 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Buyurtma №

Metallurg Minbari

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O`zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Bosishga topshirish vaqt 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O`zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.